



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI RASMIY TASHRIF BILAN TURKIYADA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi
Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning taklifiga
binoan 29-yanvar kuni rasmiy tashrif bilan ushbu
mamlakatda bo‘ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Anqara shahrida
ikki davlat rahbarlari raisligida Strategik
hamkorlik kengashining to‘rtinchi yig‘ilishini
o‘tkazish rejalashtirilgan.

Muzokaralarda O‘zbekiston —
Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik
munosabatlarini yanada kengaytirish
masalalari diqqat markazida bo‘ladi.

Siyosiy muloqotni rivojlantirish, tovar
ayirboshlashni oshirish, ustuvor iqtisodiy
tarmoqlarda kooperatsiya loyihalarini ilgari
surish hamda transport jihatidan o‘zaro
bog‘liqlikni mustahkamlashga alohida e’tibor
qaratiladi.

Shuningdek, faol madaniy va gumanitar
almashinuvlarni davom ettirish masalalari
ham ko‘rib chiqiladi. Xalqaro va mintaqaviy
kun tartibining dolzarb jihatlarini yuzasidan fikr
almashiladi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida
salmog‘li hujjatlar to‘plamini imzolash ko‘zda
tutilgan.

Bundan tashqari, ikki mamlakat
yetakchilari qator qo‘shma tadbirlarda ishtirok
etadilar.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON – TURKIYA: VAQT SINOVIDAN O‘TGAN DO‘STLIK VA HAMJIHATLIK

29-yanvar kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
rasmiy tashrif bilan Turkiyaga boradi. Tashrif doirasida Anqara
shahrida Strategik hamkorlik kengashining to‘rtinchi yig‘ilishini
o‘tkazish rejalashtirilgan.



Bo‘ljak tashrif so‘nggi yillarda nafaqat
siyosiy muloqotda, balki og‘ir sinovli
damlarda ham o‘zining mustahkamligini
tasdiqlagan O‘zbekiston — Turkiya
munosabatlarining yuksak darajasini aks
ettiradi. 2023-yil fevral oyida Turkiyaning
Xatay va Gaziantep viloyatlarida sodir
bo‘lgan vayronkor zilzilada O‘zbekiston
birinchilardan bo‘lib qardosh xalqqa yordam
qo‘lini cho‘zgan edi.

O‘tgan yillar davomida ushbu hududlar keng
ko‘lamli tiklanish bosqichini bosib o‘tdi va
O‘zbekiston Prezidentining tashrifi infratuzilma
va ijtimoiy hayotini qayta tiklash bo‘yicha sa‘y-
harakatlarga alohida ramziy ma‘no beradi,
qardoshlik, strategik sheriklik va o‘zaro
qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan
O‘zbekiston — Turkiya munosabatlarining
chuqurligini ko‘rsatadi.

Davomi 2-betda

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O‘ZBEKISTON

Yangi O‘zbekiston ruhi



DUNYO E‘TIBORI VA E‘TIROFIDAGI MASKAN

Bundan roppa-rosa bir yil muqaddam — 2025-yil 29-yanvar kuni Prezidentimiz
O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurib, 2000 dan ortiq mahalliy
va xorijlik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-innovatsion loyihalardan markaz
ekspozitsiyalarida foydalanish yuzasidan qator tavsiya va topshiriqlar bergan edi.

Bu chin ma‘noda tarixiy tashrif bo‘ldi. O‘tgan bir yil
davomida markaz binosi to‘la qurib bitkazildi. Markaz
faoliyatini takomillashtirish, kontentini boyitish ishlari
40 dan ortiq mamlakatdan mutaxassislar, dizaynerlar
safarbar etildi.

Davlatimiz rahbari 2025-yilning sentabr oyida BMTning
yuksak minbaridan O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi
markazi qurib bitkazilgani, tez orada foydalanishga
topshirilishi haqida ma‘lumot berdi. Ta‘kidlash joizki,
o‘tgan davr ichida ichki kontent yanada boyitildi. Markaz
jahon ahlining e‘tiboridagi betakror maskanga aylandi.
Bugun dunyoning turli nuqtalaridan kelgan oliy martabali
mehmonlar, davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari
markaz faoliyati, sivilizatsiyalar, shaxslar va kashfiyotlarga
oid ilmiy loyihalar bilan yaqindan tanishyapti, bu haqiqatni
baralla e‘tirof etyapti.

Davomi 3-betda



Prezident tashrifidan so‘ng

Osori atiqalarga boy diyorumiz
sayyohlik salohiyati va
imkoniyatlari borasida dunyoda
munosib o‘rniga ega. Samarqand,
Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent
kabi qadimiy shaharlarimizni
ko‘rish, betakror me‘moriy
obidalar, tabarruk qadamjolarini
ziyosat qilish, azaliy an‘ana va
qadriyatlarimiz bilan tanishish
istagidagi sayyohlar safi yildan
yilga ortib bormoqda. Birgina
2025-yilda sayyohlar soni 11
milliondan oshib, vizasiz tartib
joriy etilgan davlatlar 94 taga
yetgani fikrimizning yaqqol
dalili. Tinchlik va osoyishtalik,
ochiq, xavfsiz va qulay muhit
yurtimizning xalqaro imijini
yuksaltirishda muhim omil
bo‘layotir.

YARATUVCHANLIK ZAVQI YOXUD OBOD MANZILLAR HAQIDA



Toshkent nafaqat davlat boshqaruv
markazi, balki taraqqiyotga yetaklayotgan
iqtisodiy lokomotivdir. Poytaxtimizdagi
bunyodkorlik ishlari, iqtisodiy
ko‘rsatkichlar, ijtimoiy o‘zgarishlar va
infratuzilmadagi yangilanishlar shunday
deyishimizga asos bo‘la oladi. O‘tgan
haftada davlatimiz rahbari Olmazor
tuman Xastimom mahallasi Zarqaynar
ko‘chasida tashkil etilgan turizm va
xizmat ko‘rsatish obyektlari faoliyati
bilan tanishdi.

Esli shaharning tarixga uyg‘un
zamonaviy ko‘chasi

Turizm kam mablag‘ bilan ko‘p
ish o‘rni yaratadigan, aholi daromadini
va hududlar qiyofasini yaxshilaydigan
soha. Toshkent shahrida bu borada
imkoniyatlar ko‘p. Jumladan, Olmazor
tumanida ushbu salohiyatni to‘liq
ishga tushirish maqsadida 447 gektar
hududni qamrab olgan loyiha amalga
oshirilmoqda. Unga ko‘ra, 15 mahallani
o‘zaro bog‘lovchi 6 ta ko‘chada turizm
va xizmat ko‘rsatish obyektlari barpo
etiladi.

Davomi 2-betda

KAMBAG‘ALLIKDAN CHIQRARISH

BU SHUNCHAKI MODDIY YORDAM EMAS, BALKI
DOIMIIY DAROMADGA YO‘NALTIRISH HARAKATI



Insonizm, ba‘zan to‘rt muchamiz sog‘, ishimiz va doimiy daromadimiz bo‘la turib, nolishga
bahona, sabab topamiz. Oylik maoshimiz bir oz kechiksa, ishimiz odatdagidan ko‘payib,
charchab qolsak ham darrov o‘zimizni qiynalgan his qilamiz. “Demak, ishimiz bor ekan,
charchayapmiz, shukr”, deyishni unutib qo‘yamiz. Vaholanki, atrofimizda ish izlab yurganlar,
mehnat qilishga ishtiyoqi bo‘la turib, imkoniyati cheklanganlar qancha.

Har gal maqola yozish uchun shahardan tashqariga
chiqib, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoki ishlashga imkoniyati
cheklangan odamlar bilan suhbatlashganimda shukr qilib
yashash qiymatini yanada yaxshiroq his qilaman. Buni menga
o‘sha odamlarning hayotidan rozilik hissi, ularga berilayotgan
yordamlardan minnatdorlik va yaxshiroq yashashga bo‘lgan
intilishi anglatadi.

Har qanday jamiyatda kambag‘al qatlam mavjud.
Ularning ba‘zilari hayotiy sinovlar sabab shu holga
tushgan bo‘lsa, boshqalari nogironligi tufayli ko‘proq
daromad topish imkoniyatidan mahrum. Ammo ular ham
shu jamiyatning teng huquqli a‘zosi, mamlakat fuqarolari.
Doim ta‘kidlab kelingan bu jumlaning amaldagi ifodasi esa
yurtimizda keyingi o‘n yilda o‘z isbotini topmoqda. Ya‘ni
har bir fuqaroga berilayotgan e’tibordan og‘ir ahvolda
tushib qolgan, nogironligi bo‘lgan shaxslar ham chetda
qolmayapti. Gap faqat ularga berilayotgan ijtimoiy ko‘mak,
bir martalik yordamlar emas, balki ularni jamiyatga qo‘shish,
boshqa fuqarolar kabi teng sharoitlarda yashashi uchun
barcha imkoniyatlar ishga solinayotgani haqida boryapti.
Qiziqishlaridan kelib chiqib, o‘qishga, ishga yo‘naltirilyapti,
bandligi ta‘minlayapti. Bu davlatimiz o‘z oldiga qo‘ygan
asosiy vazifa — kambag‘allikka butunlay barham berish
harakatlarining bir qismidir.

Davomi 4-betda

Yuksalish pallasi



ALPLIK QUVVATI-YU MUZAFFAR TIYNAT

KATTA O‘ZANGA
QO‘SHILAYOTGAN FUTBOLIMIZNING
TURKIY QIYOFASI

6

2026-yil 29-yanvar, 19-son



Boshlanishi 1-betda

2023-yil fevral oyida Turkiya zamonaviy tarixidagi eng og‘ir fojialardan biriga duch keldi. Mamlakatning Janubi-sharqiy hududlariga ta’sir ko‘rsatgan kuchli zilzilada ko‘plab insonlar qurbon bo‘ldi, turar joy mavzolari, ijtimoiy infratuzilma obyektlari va sanoat zonalarini vayronatga aylandi.

Xatay va Gaziantep viloyatlari tabiiy ofat markazida bo‘lgan. Minglab oilalar boshpanasidan ayrildi, o‘n minglab odamlar o‘z uylarini tashlab ketishga majbur bo‘ldi. Xalqaro hamjamiyat fojiga munosabat bildirdi. O‘zbekiston ham birinchilardan bo‘lib amaliy yordam ko‘rsatdi.

O‘zbekiston ushbu murakkab pallada turkiy dunyo uchun qardosh mamlakat va Turkiyaning ishonchli strategik sherigi sifatida maydonga chiqdi. Qisqa vaqt ichida jabrlangan hududlarga O‘zbekiston favqulodda vaziyatlar vazirligining zamonaviy qutqaruv texnikalari bilan jihozlangan maxsus bo‘linmalari yuborildi. O‘zbekistonlik qutqaruvchilar va tibbiyot brigadalari qidiruv-qutqaruv operatsiyalarida, jabrlanganlarga birinchi tibbiy

yordam ko‘rsatishda, gumanitar missiyalarda ishtirok etdi.

Dori-darmon, oziq-ovqat, zarur narsalar va boshqa insonparvarlik yuklari yetkazildi. O‘zbekiston tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidov Xatay va Gaziantepga tashrif buyurib, turk xalqiga qo‘llab-quvvatlash va hamijihatlik so‘zlarini bildirdi, turkiyalik hamkasblari bilan yordam ko‘rsatish bo‘yicha keyingi qadamlarni muhokama qildi.

O‘zbekistonning zarar ko‘rgan hududlarini tiklash bo‘yicha uzoq muddatli sa’y-harakatlardagi ishtiroki alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Xususan, Xatay viloyatining Arsuz tumanida O‘zbekiston hukumati ko‘magida zilzila oqibatida uy-joyidan ayrilgan fuqarolar uchun mo‘ljallangan turar joy majmuasi bepul qurib bitkazildi. Ushbu loyiha bir martalik yordamdan tashqari amaliy hamijihatlik va insonparvarlik mas’uliyatining yaqqol ramziga aylandi.

O‘zbekistonning bunday pozitsiyasi Turkiya bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ko‘p yillik yo‘limizning mantiqiy davomidir. Ikki davlat o‘rtasida diplomatik



munosabatlar 1992-yil 4-martda o‘rnatilgan bo‘lib, Turkiya O‘zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olgan. O‘shandan buyon O‘zbekiston — Turkiya munosabatlari siyosiy, iqtisodiy, gumanitar va madaniy sohalarini qamrab olgan holda izchil rivojlanib bormoqda.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON – TURKIYA: VAQT SINOVIDAN O‘TGAN DO‘STLIK VA HAMJIHATLIK

Boshlanishi 1-betda

Mazkur loyihaning bir qismi — Zaqaynar ko‘chasida bajarilgan bunyodkorlik ishlari mahalla ruhini o‘zida mujassam etib, sokin va fayzli go‘shaga aylantirgan. Respublikamiz byudjetidan ajratilgan 150 milliard so‘m hisobiga bu yerda 576 ta xonadon milliy ko‘rinishda ta’mirlanib, mahalla tarixiy muhita uyg‘un qiyofa kasb etdi. Asrlar davomida shakllangan milliy me’morlik an’analari va hunarmandlik ruhi bugun mahallaga yangicha ko‘rk va mazmun bag‘ishlamogda. Loysuvuq uylar, naqshinkor darvozalar, baland ayvonlar, yog‘och ustunlarga o‘yib ishlangan nozik naqshlar tabiiy muhita o‘ziga xos fayz beryapti. Hunarmandlarning qo‘l mehnati mahsuli bo‘lgan, nozik did bilan yaratilgan namunalar tashrif buyuruvchilarni bafarq qoldirmaydi.



Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Davlatimiz rahbari yangilangan ko‘cha bo‘ylab yurar ekan, milliy me’moriy uslubda ta’mirlangan xonadonlar, aholi uchun yaratilgan sharoitlarni ko‘zdan kechirdi. Shu yerda istiqomat qilayotgan oilalar, sayyohlar, hunarmandlar bilan samimiy suhbatlashdi.

— Biz sayyohlar uchun sharoit yaratishni istaymiz, lekin buning asosini ham to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishimiz kerak. Masalan, hunarmandlik — milliyligimizni ifodalaydigan asosiy yo‘nalishlardan biri. Shu bois, hunarmandlar mahsulot ishlab chiqarishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berish bizning vazifamiz. Malakali kadrlar tayyorlash zarur. Shu maqsadda hunarmandlar universitetini tashkil etish maqsadga muvofiq. Biz tadbirkorlar bilan uchrashyapmiz, endilikda hunarmandlar bilan ham alohida uchrashuvlar tashkil etamiz, — dedi Prezidentimiz.

Yurtimizda turizmni drayver sifatida barqaror rivojlantirish, turistik klasterlar tashkil etish, uni sardaromad sohaga aylantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu esa yangi ish o‘rinlarini yaratish, infratuzilmani takomillashtirish, madaniy meros obyektlarini saqlash, turizm oqimini ko‘paytirish va iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Keyingi besh yilda sayyohlar oqimini 2 karra oshirib, 20 millionga yetkazish reja qilingan. Bunda, albatta, yo‘lga qo‘yilayotgan yangi turizm loyihalari muhim ahamiyatga ega.

Ana shunday noyob loyihalardan biri bo‘lgan Zaqaynar turizm ko‘chasida sayyohlar uchun qulay xizmatlar yo‘lga qo‘yilgan. Tarixiy-madaniy salohiyatga ega bu hududda yuz nafar tadbirkor tomonidan 166 milliard so‘m investitsiya kiritilgani natijasida 7 ta mehmonxona, 8 ta restoran, 5 ta hunarmandlik markazi, 1 ta savdo markazi,

125 ta xizmat ko‘rsatish obyekti tashkil etildi, 1500 kishi doimiy ish bilan ta’minlandi.

Toshkentning eski shahar qismida joylashgan, tarixiy va ma’naviy qiymatga ega bu manzilni turizm ko‘chasiga aylantirishdan maqsad aholi bandligini ta’minlash, hunarmandlik, xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish, milliy qadriyatlarimizni asrash barobarida sayyohlik imkoniyatlarimizni yana bir bor dunyoga namoyish etishdir.



Prezident tashrifidan so‘ng

— Sovg‘abop buyumlarimiz, so‘zana, palaklar, yostiqli jildlari, dasturxon, parda, ayollar kiyimlari, kashtalar, chopon, sumka, ipak matolarga tikilgan naqshinkor hamyonlarga sayyohlarning qiziqishi katta, — deydi kashtado‘z hunarmand, “Shuhrat” medali sohibi Nasibaxon Isoqova. — Ushbu turizm ko‘chasi faoliyatimizni yanada kengaytirishimizda ko‘mak bo‘ldi. Shu yerda usta-hunarmand markazi va do‘kon ochildi. Prezidentimiz tashrifidan boshimiz ko‘kka yetdi. Ayniqsa, hunarmandlikka berilayotgan e’tibor va imkoniyatlardan xursandman. Ilgari hunarmandning do‘koni bo‘lmagan. Ustaxonam, mahsulotim brendi bilan do‘kon ochib, savdosini yo‘lga qo‘yishni orzu qilganman. Bugun ana shu orzum ushaldi. Kelajakda bu ishini davom ettirib, hududdagi ishsiz xotin-qizlar bandligini ta’minlamoqchiman. Shu orqali yurtimizdagi ishsizlar sonini kamaytirishga, aholi turmush tarzini yaxshilashga o‘z hissamini qo‘shmoqchiman. Shuningdek, milliy kashtachilik buyumlari bilan dunyo bo‘ylab o‘tayotgan milliy hunarmandlik ko‘rgazmalari,

Zaqaynar turizm ko‘chasida ayollar muzeyi, dizayn va kulolik ustaxonalari, galereya, do‘kon va qahvaxonadan iborat ekotizim yaratilgan. Tadbirkorlar Elnora Ibragimova, Aleksandra Romanova va Natalya Po‘latovanning konsepsiyalari jamiyat taraqqiyotida o‘zbek ayolining o‘rni va hisssasi haqida hikoya qiladi.

— O‘zbek ayoli azaldan mehnatkash bo‘lgan, — deydi tadbirkor Elnora Ibragimova. — Ekspонатlar tomoshabinini oilaviy qadriyatlar va ayolning ijtimoiy faolligi haqida chuqur mulohaza yuritishga undaydi. U yosh avlod, ayniqsa, qizlar uchun ilhom manbai bo‘lib, o‘z salohiyatini anglashi, o‘zligini va jamiyat hayotida munosib o‘rin topishiga xizmat qiladi. Muzey va galereya yurtimiz rassomlarining ko‘rgazmalarini o‘tkazishni rejalashtirmoqda. Milliy madaniyat va ma’naviy qiyofani namoyon etuvchi bu maydon aholining dunyoqarashi, tarixiy xotirasi, zamonaviy tafakkuri va estetik didi yuksalishi, yangi ijodkorlarning kashf etilishiga xizmat qiladi.

Mutasaddilarga turizm va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi ishlarni yanada takomillashtirish, mahallalardagi tarixiy muhitni asrab-avaylagan

rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan master-reja taqdimot qilindi.

Kelgusida hududda ta’lim-innovatsiya, turizm va savdo, madaniy meros, biznes hamda AT xizmatlarni qamrab olgan “rivojlanish koridorlari” shakllantirilishi ko‘zda tutilayotir. Eski shahar atrofida Talabalar shaharchasi, universitet va texnoparklar, sog‘liqni saqlash obyektlari, shuningdek, O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi, Hazratlari Imam majmuasi,



Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlari.

YARATUVCHANLIK ZAVQI YOXUD OBOD MANZILLAR HAQIDA

tanlov va festivallarda faol ishtirok etib, o‘zbekistonlik hunarmand ayollarning keng imkoniyatlarini xalqaro anjumanlarda ommaga ko‘rsatish, targ‘ib etish va rivojlantirishga ko‘maklashish niyatim bor.



holda iqtisodiy faollikni oshirish, eng muhimi, odamlar manfaatiga xizmat qiladigan barqaror tizimni shakllantirish bo‘yicha aniq topshiriqlar berildi. Shu yerda davlatimiz rahbariga “Olmazor” innovatsion o‘shish hududini

Chorsu va tarixiy shahar markazini o‘z ichiga olgan turizm yo‘nalishlari o‘zaro bog‘lanadi. Shu bilan birga, ishbilarmonlik ofislari, AT park va biznes markazlarni rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Tarixiy merosni saqlash holda zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, hududning iqtisodiy salohiyati va shahar muhitini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsad qilingan.

Tibbiyotda xususiy sektor ishtiroki ortmoqda

So‘nggi yillarda tibbiyotda xususiy sektor ko‘lami kengayib, nodavlat tibbiyot muassasalari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Sohada xususiy sektor salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish va klinikalar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga e’tibor qaratilyapti.

Natijada 2017-yilda xususiy shifoxonalar soni qariyb 3,5 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, bugunga kelib 9 mingdan oshdi. Yurtimizda ko‘rsatilayotgan barcha turdagi tibbiy xizmatlarda ushbu sektorning ulushi keyingi yillarda 10 foizdan 30 foizga yetdi. Bir mahalllar

Prezidentlari raisligida O‘zbekiston — Turkiya strategik hamkorlik kengashi tuzildi. Ushbu mexanizm asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni muvofiqlashtirish uchun muhim institutsional platformaga aylandi. Kengashning birinchi yig‘ilishi 2020-yil fevral oyida Anqara shahrida, ikkinchisi 2022-yil mart oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tdi, uning yakunlari bo‘yicha munosabatlar keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi. Kengashning uchinchi yig‘ilishi 2024-yil iyun oyida Anqara shahrida bo‘lib o‘tdi hamda siyosiy muloqotning barqarorligi va dinamikasini tasdiqladi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston Prezidenti besh marta Turkiyaga tashrif buyurdi, Turkiya Prezidenti esa bir necha bor O‘zbekistonga keldi, bu oliy darajadagi muloqotlar yuqori sur’atda o‘tayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston va Turkiya siyosiy muloqotni kengaytirish, iqtisodiy integratsiya, transport bo‘liqligini rivojlantirish va umumiy turkiy madaniy merosni asrab-avaylash tarafdori bo‘lgan Turkiya davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarda alohida o‘rin tutadi. Shu ma’noda, parlamentlararo aloqalar, jumladan, parlamentlararo do‘stlik guruhlar faoliyati, qonun chiqaruvchi organlar rahbarlari o‘rtasidagi muntazam muloqotlar ham faol rivojlanmoqda.

Shu bilan birga, tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi hamkorlik faollashdi. Siyosiy maslahatlashuvlarning 13 raundi o‘tkazildi, ularning oxirigisi 2025-yil iyun oyida Anqarada bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston tomoni Turkiyadagi yirik xalqaro diplomatik tadbirlarda, jumladan, mintaqaviy va global kun tartibini muhokama qilish uchun muhim maydonga aylangan Anadolu diplomatik forumida muntazam ishtirok etib kelmogda.

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi iqtisodiy sheriklik barqaror o‘shish va diversifikatsiyani

namoyish etmoqda. Turkiya O‘zbekistonning eng yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biridir. 2023-yilda Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim imzolaniib, ikki mamlakat biznesi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar ochildi. 2025-yil yakunlari bo‘yicha o‘zaro savdo hajmi qariyb 3 milliard dollarni tashkil etdi. Investitsiya sohasidagi hamkorlik kengayib bormoqda. Shu bilan birga, sanoat, qurilish, energetika, to‘qimachilik va infratuzilma loyihalariga katta miqdorda investitsiyalar yo‘natilirmoqda. Transport yo‘laklari faol rivojlanmoqda, temir yo‘l, avtomobil va aviaqatnovlar ko‘paymoqda, mamlakatlar o‘rtasidagi muntazam aviaqatnovlar haftasiga qariyb 100 taga yetdi.

Tarixiy ildizlar, til, an’ana va ma’naviy meros mustarakligiga asoslangan madaniy-gumanitar hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega. Turkiyada o‘zbek adabiyoti va madaniyatining buyuk namoyandalari merosiga katta hurmat bilan qaraladi. Anqarada Alisher Navoiy haykalining ochilishi, Abu Rayhon Beruniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa ulug‘ mutafakkirlarga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlarning o‘tkazilishi ana shu ehtiromning yorqin ifodasi bo‘ldi. Ta’lim forumlari, rektorlar uchrashuvlari, madaniyat festivallari, fan va san’at sohasida qo‘shma loyihalar muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Anqaraga bo‘ljak tashriflari O‘zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari chuqurlashtirishning davomi, shuningdek, jabr ko‘rgan mintaqalar bilan birdamlikning mantiqiy ishorasidir. U ikki qardosh xalqning og‘ir damlarda bir-birini qo‘llab-quvvatlashga, turkiy dunyoning o‘zaro ishonchi, hurmati va mustarak qadriyatlariga asoslangan kelajagini birgalikda qurishga tayyorligini namoyon etadi.

“Dunyo” AA

DUNYO E'TIBORI VA E'TIROFIDAGI MASKAN



Firdavs ABDUXOLIQOV,
O‘zbekistondagi
islom sivilizatsiyasi
markazi direktori

Boshlanishi 1-betda

Bugungi kunda dunyo chuqur sivilizatsion o‘zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Texnologik taraqqiyot axloqiy anglashdan ilgarilab ketmoqda, global inqirozlar esa — geosiyosiy to‘qnashuvlardan tortib, madaniy o‘zlikni yo‘qotishgacha — insoniyatning muloqotga qodirligi masalasini tobora ko‘proq kun tartibiga qo‘ymoqda. Din ko‘p hollarda mojarolar vositasiga, madaniyat esa bo‘linish chizig‘iga aylanayotgan bir paytda sivilizatsion muloqotga uning asl, yaratuvchan mohiyatini qaytarishga qodir bo‘lgan yangi platformalarga ehtiyoj keskin ortib bormoqda.


Ana shunday tarixiy pallada Yevroosiyoqning qoq markazida — buyuk sivilizatsiyalar va saltanatlar vujudga kelgan, ming yillar davomida savdo yo‘llari, dinlar, ilmiy maktablar va madaniyatlar tutashgan zaminda yangi turdagi noyob makon — O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi dunyoga keldi. Uning barpo etilishi tasodif emas va qandaydir populistik loyiha mahsuli ham emas. Bu O‘zbekiston Prezidentining strategik dunyoqarashining bevosita ifodasidir.

Prezidentimiz 2017-yilda BMT minbaridan jahon hamjamiyatiga murojaat qilib, islom sivilizatsiyasining jahon tarixidagi asl o‘rnini tiklashga, shuningdek, muqaddas islom dini asosida ma‘rifat, ilm-fan va insonparvarlik qadriyatlarini yotganini, ekstremizm va jaholatni faqat bilim va madaniyat kuchi bilangina yengish mumkinligini eslatgan edi.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish qurilayotgan Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif chog‘ida ushbu yo‘nalishga yuqori baho berib: **“Prezidentingiz Shavkat Mirziyoyev — buyuk va nufuzli rahbar, u BMTning oliy minbaridan muloqot, ma‘rifat va o‘zaro hurmat g‘oyalari izchil ilgari surmoqda”**, degan edi. Bu so‘zlar jahon hamjamiyati allaqachon anglab yetgan haqiqatni aks ettiradi: Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekiston tarixining chekkasida qolgan hudud emas, balki uning faol bunyodkorlaridan biriga aylandi.

O‘z navbatida, Prezidentimizning BMT minbaridan qilgan murojaati markaz uchun nafaqat ulkan me‘moriy inshoot, balki jahon miqyosidagi mutlaqo yangi gumanitar model sifatida intellektual va ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qildi. Bu model doirasida islom buyuk sivilizatsiyalar tarixi orqali namoyon bo‘ladi: aynan shu sivilizatsiyalar bag‘rida ilmiy inqiloblar yuz bergan, universitetlar va akademiyalar, kutubxonalar va laboratoriyalar barpo etilgan, tibbiyot va falsafa, san‘at va ilmiy izlanishning asoslari qo‘yilgan, zamonaviy dunyo intellektual negizi shakllangan.

O‘zbekiston Prezidentining shaxsiy siyosiy irodasi, strategik qarashlari va izchil yetakchiligi tufayli Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etish g‘oyasi haqiqatan ham ko‘lami, mazmun-



ilg‘or muzey texnologiyalari va zamonaviy madaniy diplomatiyaning yangi yo‘nalishlari shakllanmoqda.

Finlandiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Stubb markazga tashrifidan so‘ng bunday dedi: **“Rostini aytсам, men bu yerda haqiqatan ham misli ko‘rilmagan taassurotlar girdobida qoldim. Har bir ekspozitsiya, har bir zal, har bir tafsilot chuqur va puxta o‘ylangan. Uch ming yillik tarixni bugungi avlodga shunchalik zamonaviy, ta’sirchan va ishonarli formatda yetkazish yuksak darajadagi san‘at va katta mahoratni talab qiladi. Ushbu markaz nafaqat o‘tgan asrlar merosini qayta tiriltirdi va qayta angladi, balki kelajak avlodlar uchun ilhom manbaiga aylandi. Ayniqsa, interaktiv ekspozitsiyalar va innovatsion texnologiyalar juda ta’sirli — ular yoshlarni rostdan ham o‘ziga tortadi. Bu yerda tarixni o‘qimaydilar — uni his qiladilar. Yaratilgan muhitda beparvo qolish yoki zerikishning iloji yo‘q. Har bir sahna, har bir yorug‘lik aksenti, har bir tafsilot o‘z ma’nosi va badiiy mantig‘iga ega. Men bu markazni samimiy minnatdorlik, chuqur hurmat va hayrat tuyg‘usi bilan tark etayman”**.

Bugun O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi zamonaviy dunyo uchun bosqichma-bosqich shakllanib borayotgan intellektual markaz sifatida namoyon bo‘lmoqda. Turli tarixiy davrlarda Bag‘doddagi Bayt ul-hikma, Xorazm Ma‘mun akademiyasi va Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi qanday ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, markaz ham bugungi kunda shunday makonga aylanmoqda — u faqatgina ilm saqlangan va to‘plangan joy emas, balki sivilizatsiyalar intellektual va ma‘naviy taraqqiyoti yo‘nalishini belgilab bergan muhitni yetkazuvchi manzildir.

Biroq hozirgi tarixiy davrda markaz faoliyati yuksak va ulug‘vor vazifalarni qamrab olgan. Agar ilgari bunday ilmiy markazlar o‘z davri va madaniyati doirasida tarkib topib, g‘oyalari asrlar davomida qo‘lyozmalar, tarjimalar va avlodlar orqali sekin tarqalgan bo‘lsa, bugun Islom sivilizatsiyasi markazi Prezidentimiz tomonidan ilk kundanoq ochiq, global ta’limiy va madaniy-gumanitar megaplatforma sifatida shakllantirishga mo‘ljallangan.

O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi XXI asrga xos yangi turdagi sivilizatsion institutdir. Bu yerda tarixiy bilim raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashadi, qo‘lyozma global raqamli manbaga aylanadi, muzey ilmiy laboratoriya tusini oladi, milliy meros esa xalqaro muloqot, o‘zaro anglashuv va bunyodkorlikning umuminsoniy mezoniga aylandi.

Ushbu maqolani Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchichning so‘zlari bilan yakunlash o‘rinli: **“Men bunga o‘xshash markazni avval hech qayerda ko‘rmaganman. Islom sivilizatsiyasi markazi nihoyatda zamonaviy va go‘zal uslubda qurilgan va yaratilgan. Bugun men juda ko‘p narsani o‘rgandim va albatta bu yerga yana qaytaman. Serbiyalik barcha vatandoshlarimga bunday degan bo‘lardim: “Azizlarim, men juda katta xato qilganman, chunki bu mamlakatga ilgari hech qachon kelmaganman. Iltimos, imkon qadar tezroq O‘zbekistonni ko‘rish uchun kelinglar”**.

mohiyati kengligi va xalqaro ahamiyati jihatidan misli ko‘rilmagan formatda amalga oshirildi. Yangi davr talablaridagi muzey, ilg‘or ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi, eng zamonaviy kutubxona, Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari rivojini qamrab olgan milliy va xalqaro arxiv tizimi, raqamli gumanitar texnologiyalar hamda global ilmiy-madaniy hamkorlikning keng tarmoqlarini birlashtirgan noyob sivilizatsion majmua yaratildi.

Ushbu loyihaga Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev ham yuksak baho berib, bunday degan: **“Bu ulkan va noyob inshootdir. Darhaqiqat, bu — ilmiy, turistik va etnomadaniy loyiha. O‘zbekiston Prezidentining fikriga qo‘shilaman: Islom**

sivilizatsiyasi markazi bu yerda, Toshkentda, juda muhim sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun umumiy maydonga aylanishi mumkin”.

Jahon ekspertlari ta’kidlaganidek, O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi oddiy infratuzilmaviy obyekt yoki madaniy rivojini qamrab olgan milliy va xalqaro arxiv tizimi, raqamli gumanitar texnologiyalar hamda global ilmiy-madaniy hamkorlikning keng tarmoqlarini birlashtirgan noyob sivilizatsion majmua yaratildi.

Ushbu loyihaga Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev ham yuksak baho berib, bunday degan: **“Bu ulkan va noyob inshootdir. Darhaqiqat, bu — ilmiy, turistik va etnomadaniy loyiha. O‘zbekiston Prezidentining fikriga qo‘shilaman: Islom**

sivilizatsiyasi markazi bu yerda, Toshkentda, juda muhim sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun umumiy maydonga aylanishi mumkin”.

Jahon ekspertlari ta’kidlaganidek, O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi oddiy infratuzilmaviy obyekt yoki madaniy rivojini qamrab olgan milliy va xalqaro arxiv tizimi, raqamli gumanitar texnologiyalar hamda global ilmiy-madaniy hamkorlikning keng tarmoqlarini birlashtirgan noyob sivilizatsion majmua yaratildi.

Ushbu loyihaga Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev ham yuksak baho berib, bunday degan: **“Bu ulkan va noyob inshootdir. Darhaqiqat, bu — ilmiy, turistik va etnomadaniy loyiha. O‘zbekiston Prezidentining fikriga qo‘shilaman: Islom**

sivilizatsiyasi markazi bu yerda, Toshkentda, juda muhim sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun umumiy maydonga aylanishi mumkin”.

Jahon ekspertlari ta’kidlaganidek, O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi oddiy infratuzilmaviy obyekt yoki madaniy rivojini qamrab olgan milliy va xalqaro arxiv tizimi, raqamli gumanitar texnologiyalar hamda global ilmiy-madaniy hamkorlikning keng tarmoqlarini birlashtirgan noyob sivilizatsion majmua yaratildi.

Ushbu loyihaga Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev ham yuksak baho berib, bunday degan: **“Bu ulkan va noyob inshootdir. Darhaqiqat, bu — ilmiy, turistik va etnomadaniy loyiha. O‘zbekiston Prezidentining fikriga qo‘shilaman: Islom**

sivilizatsiyasi markazi bu yerda, Toshkentda, juda muhim sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun umumiy maydonga aylanishi mumkin”.



oldi — islom dini va islom sivilizatsiyasi tushunchasining qiyofasini buzib talqin etishga an‘anaviy safsata va xalqaro forumlar hamda konferensiyalardagi bayonotlar bilan emas, balki jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan haqiqiy, amal qiluvchi intellektual makonni yaratish orqali qarshi turishga bel bog‘ladi.

Ozərbaycan Respublikası Prezidenti İlham Əliyev bu mə'nəni aniq ifadə etib, bunday tə'kidladi: **“O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurib, biz yana bir bor mamlakat rahbariyatining o‘zbek xalqining boy madaniy va ma‘naviy qadriyatlarini asrash va targ‘ib etishga chuqur sadoqatini ko‘rdik. Ayrim mamlakatlarda dinimizga nisbatan hujumlar kuchayayotgan, islomofobiya esa tizimli tus olayotgan bir sharoitda islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu markaz butun dunyoga islom bunyodkorlik, gumanizm, bag‘rikenglik, do‘stlik va birodarlik dini ekanini yaqqol namoyon qiladi”**.

Ekspertlar va siyosatchilar bir ovozdan ta’kidlamoqdaki, mazkur loyiha radikalizmga va islom qiyofasini buzib ko‘rsatishga qarshi gumanitar himoya — kuch bilan emas, bilim bilan yaratilgan qalqongaya aylandi.

Markaz faoliyati uchun madaniy merosni qaytarish jarayoni alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston Prezidenti toshpirlig‘iga binoan maxsus davlat va diplomatik mexanizmlar yaratildi, bu esa markazga dunyodagi eng yirik auktsion uylari — Sotheby’s, Christie’s, Bonhams, shuningdek, yetakchi muzey tashkilotlari va xususiy kolleksionerlar bilan tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkonini berdi. Natijada mamlakatimizga taxminan ikki mingga yaqin noyob artefakt qaytarildi. Ular

orasida Ibn Sino qo‘lyozmalari, Beruniy asarlari, Temuriylar davri miniatyuralari, islom san‘ati durdonalari va o‘n yillar, hatto asrlar davomida vatanimiz hududidan tashqarida saqlanib kelgan boshqa beqiyos yodgorliklar bor.

Bu markazning ulkan muzey ekspozitsiyalarini boyitishgina emas, balki Markaziy Osiyoning sivilizatsion xotirasini qaytarish va tarixiy adolatni tiklashning haqiqiy amaliyotidagi ifodasidir.

Shu nuqtayi nazardan, Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penya markaz ekspozitsiyalari bilan tanishar ekan, o‘z hayratini yashirmadi: **“Islom sivilizatsiyasi markazi ekspozitsiyalari bilan tanishuv menda juda kuchli taassurot qoldirdi. Insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan ko‘plab ilmiy va madaniy yutuqlar aynan shu zaminda ilk bor vujudga kelgan. Afsuski, dunyoda hamma ham algebra, tibbiyot va boshqa fanlar sohasidagi ilk fundamental asarlar aynan shu yerda paydo bo‘lganini bilmaydi. Bu tashrif meni ilhomlantirdi va O‘zbekiston ulkan salohiyatiga ega ekaniga ishonchimni mustahkamladi. O‘zbekiston tarixi haqiqatan ham noyobdir”**.

Bu so‘zlar yangi O‘zbekiston siyosati tufayli mamlakat yana bir bor jahon bilan o‘zining haqiqiy tarixi tilida so‘zlasha boshlaganining e’tirofidir.

Ekspertlar va siyosiy yetakchilar fikricha, O‘zbekiston Prezidenti faqat o‘tmishni tiklash va bugunni anglash bilan cheklanmay, kelajakni izchil va maqsadli ravishda shakllantirmoqda. Shu bois, Islom sivilizatsiyasi markazi avval boshdan dinamik rivojlanuvchi tizim — xalqaro ilmiy platforma, mediamaydon, nashriyot va ta’lim markazi sifatida vujudga keldi. Bu yerda islomshunoslikning yangi avlodi,



Bugunning gapi

Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senati a‘zosi

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yangilangan tahriri bu — xalqimiz kelajagi uchun ochiq muloqotdir. Dasturiy hujjatning takomillashtirilgan loyihasi kelgusi besh yilga mo‘ljallangan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. E’tiborli jihati shundaki, unda keyingi yillarda erishilgan natijalar chuqur tahlil qilingan holda kelgusi besh yilda mamlakat qaysi yo‘ldan borishi aniq belgilanmoqda.

Bu jarayon Prezidentimizning Oliy Majlis va yurtdoshlarimizga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarga muvofiq ravishda davlat siyosatini real ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, global chaqiriqlar hamda aholi ehtiyojlari bilan



uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Zero, bu har bir fuqaroning o‘z fikrini bildirish va taklif kiritish imkoniyati mavjudligini anglatadi.

Demografik jarayonlar ham strategiya mazmunini belgilashda alohida e’tiborga olindi.

Xususan, 2023-yilda mamlakat aholisi 36,7 million kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2030-yilga borib 41 millionga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa ta’lim, sog‘liqliq saqlash, mehnat bozori, uy-joy va ijtimoiy infratuzilmaga talab ortib boradi demakdir. Shu nuqtayi nazardan, har bir strategik maqsad aholi o‘sishi va uning ehtiyojlarini hisobga olgan holda belgilanmoqda.

Bundan tashqari, jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlardagi o‘zgaruvchan tendensiyalar, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi davlat siyosatini yuritishda yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Aholi ehtiyojlari o‘zgarib borayotgani ham strategik rejalashtirishni zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi.

Takomillashtirilgan strategiya markazida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan muhim g‘oya — “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” tamoyili turadi. E’tiborli tomoni, mazkur dastur qonunchilik va ijro hokimiyati faoliyatini o‘rta va uzoq muddatli maqsadlar asosida muvofiqlashtiruvchi konseptual hujjat

sifatida namoyon bo‘lib, unda islohotlarning ichki mantig‘i, ustuvor yo‘nalishlar hamda natijaga yo‘naltirilgan davlat boshqaruvi modelini shakllantirish mexanizmlari o‘z ifodasini topgan.

Ushbu hujjat qabul qilingan davr bilan hozirgi iqtisodiy voqeqlik o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sur‘atlari, davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlar va fuqarolik jamiyati institutlari faolligi sezilarli darajada oshirdi. Shu bilan birga, global iqtisodiyotdagi beqarorlik, raqamli transformatsiya, demografik o‘zgarishlar va texnologik taraqqiyot davlat siyosati oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Strategiyani takomillashtirish zarurati avval belgilangan maqsadlardan voz kechish emas, balki ularni zamon talablariga mos ravishda aniqlash, o‘lchash va amaliy mexanizmlar bilan boyitishdir. Bu, o‘z navbatida, davlat siyosatining yangi bosqichga ko‘tarilayotganini, O‘zbekiston jahon miqyosida raqobatbardosh strategik yo‘nalishlarni og‘li ravishda tanlayotganini

anglatadi. Dasturiy hujjat natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv, inklyuziv iqtisodiy o‘sish, inson kapitaliga investitsiya kiritish hamda hisobdorlik va shaffoflik tamoyillariga tayanadi.

Har bir vazirlik va idoraning mas’uliyati strategiyada aniq belgilab berilgan, 60 ga yaqin davlat organiga tegishli samaradorlik ko‘rsatkichlari yuklatildi. Shuningdek, har bir ko‘rsatkichga erishishni ta’minlaydigan moliyaviy manbalar aniq ko‘rsatildi. Endilikda soha, tarmoq va hududlarni rivojlantirishga oid barcha konsepsiya va strategiyalar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq holda ishlab chiqilishi qat’iy belgilandi. Jumladan, yaqin yillarda 50 dan ortiq sohaviy va hududiy rivojlanish konsepsiya va strategiyasini qabul qilish rejalashtirildi.

Har bir maqsad uchun aniq samaradorlik ko‘rsatkichlari, mas’ul organlar va moliyaviy manbalarning belgilab qo‘yilgani nazoratni tizimli va dalilga asoslangan tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Strategiyaning 45-60-maqsadlarini qamrab olgan iqtisodiyotni liberallashtirishning

institutsional va tabikiy asoslari ham mazmunan, ham sifat jihatidan tubdan yangilandi. Bu maqsadlar iqtisodiy erkinlikni kengaytirish, raqobat muhitini shakllantirish hamda davlat — biznes munosabatlari yangi bosqichga olib chiqish uchun mustahkam huquqiy va institutsional poydevor yaratadi.

Yalpi ichki mahsulot hajmi amaldagi tahrirda 160 milliard dollar etib belgilangan bo‘lsa, yangilangan strategiya ko‘ra, kelgusi besh yilda uni 240 milliard dollardan oshirish maqsad qilingan. Bu iqtisodiyotni liberallashtirish, bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini maqbul darajaga tushirish va xususiy sektorni iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveriga aylantirish orqali amalga oshiriladi.

Muhim prinsipial jihatlardan biri uning keng jamoatchilik maslahatlashuvlari asosida takomillashtirilayotganidir. Uning har bir fuqarolar uchun tushunarli bo‘lishi va hayotda sezilarli natijalar berishi asosiy mezon bo‘lib qoladi. Shu bois, strategiya umumiy deklarativ maqsadlar bilan cheklanmasdan, aholi farovonligi, ish bilan bandlik, daromadlar o‘sishi va ijtimoiy xizmatlar sifati kabi aniq ko‘rsatkichlar orqali baholanishi lozim.

Umuman olganda, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi islohotlarni chuqurlashtirish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, eng avvalo, xalqimiz hayotida aniq ijobiy o‘zgarishlarga erishishga qaratilgan umummilliy taraqqiyot dasturi sifatida namoyon bo‘ladi.



Boshlanishi 1-betda

Bu borada mamlakatimizda qator aniq vazifalar belgilangan. Xususan, joriy yilda 1 million nafar aholini doimiy ish bilan ta'minlash, 181 ming oilani kambag'allikdan chiqarish, kambag'allikdan xoli mahallalar sonini 2,5 barobarga oshirib, 3,5 mingga yetkazish, ihsizlik va kambag'allik darajasini 4,5 foizga tushirish maqsad qilingan. Bunda mahallalar asosiy drayverga



“Barkamol avlod” bolalar markaziga ishga taklif qilishdi. Imkoniyatim cheklanganiga qaramay, ehtiyojlarim uchun o'zini pul topayotganimdan quvonaman.



Bandlik

yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

Lochin IBRAGIMOV olgan suratlar:



o'zi?" degan savolni berib yubordim. Akam kulibgina, ammo ishonch bilan "To'g'ri, avval ham nolimaganman, shukr qilib yashaganmiz. Lekin nihoyatda tushkun holatda bo'lganman. Ijtimoiy ahvolum, doimiy ishim va daromadim yo'qligidan ezilganman. Menga berilgan eng katta yordam — e'tibor sabab ana shu tushkunlikdan chiqqanim bo'ldi. Bilaman, oylik maoshim kam ekaniga shama qilyapsiz. To'g'ri, bu oylik bilan boyib ketmaymiz. Ammo mana shu isb sabab hayotga qarashim butunlay o'zgardi, umidim, maqsadlarim kattalashdi. Yashashimiz yomon emas, biroq yanada yaxshiroq yashashga ishonch paydo bo'ldi. Qolganiga mehnat qilsak, erishamiz", deb javob berdi.

Men kamligiga shama qilganim — oylik maoshdan jamg'arib, oila o'ziga skuter xarid qilgan ekan. Qolaversa, imtiyozli kredit asosida yer haydaydigan motokultivator ham berilgan. Akaning o'zi bo'sh vaqtlarida yoki o'g'li ana shu texnika yordamida qo'shimcha daromad topadi. Yaqinda isitish mavsumi uchun bir martalik moddiy yordam sifatida 1 million so'm pul ham berilganini aytishdi. Oila qiqshib bir kamini to'ldirganidan xursand.

Hozir bir oz nolisga kerak degan o'y bilan qahramonimizning ayoli — Gulmira Yaxshiboyeva bilan ham subhatlashishga oshiqdim. Ammo ayolning gaplari meni yanada hayron qoldirdi: "Bu xonadonga kelin bo'lib tushganimga 13 yil bo'ldi. Yangi kelinlik paytim turmush o'rtog'imni har kuni ishga kuzatgim kelardi. Bugun ana shu orzumga yetdim, shukr! Qolgan niyatlarimga ham asta-sekin yetaymiz. Farzandlarimni katta qilib olsam, o'zim ham monomarkazda o'qib, ishlamoqchiman".

Uzatilgan qo'l — davlatniki!

Inson boshiga shama, qanday qiyinchilik tushishini bilmaydi. Ammo ana shu qiyinchilikni yengib o'tish uchun sabrmatonatning o'zi kamlik qiladigandek. Shunday vaqlarda sizga uzatiladigan qo'l, kichik bo'lsa-da, qo'llab-quvvatlov borligi odamga kuch beradi. Agar bu yordamni davlat berayotgan bo'lsa, mahalla hol-ahvol so'ral tursa, oilangiz shu yurtga kerakligini his qilar ekansiz...

Bular mening emas, Yuqori Chirchiq tumanidagi Tinchlik mahallasida yashovchi Komila Mansurovaning so'zlari. Ayol bilan uzoq subhatlashdik. Haqiqatan, hayot kutilmagan zarbalar, imtihonlarga to'la. Komila opa boshdan o'tkazganlarini aytaypti-yu, men xuddi film ko'rayotgandekman. Faqat bu filming qahramoni yonimda o'tiribdi.

O'zimizga to'q, doimiy daromadga ega oila edik. 2022-yilda kutilmaganda boshimizga og'ir sinov tushdi, — deydi Komila opa. — Qizimiz ikkinchi farzandiga tug'urgu vaqtida juda og'ir kasallikka chalindi. O'zi ham, farzandi ham miya bilan bog'liq kasallik sabab to'shakka mixlanib qoldi. Uni davolab, yoqqoq turg'azish uchun yiqqan-terganimiz, bor-budimizni sotishga majbur bo'ldik. Shunchalikka yetdikki, yeyishga non topolmay qoldik. Juda qattiq tushkunlikka tushdim. Ammo mahallaga yordam so'rab chiqmadik, o'zlari uyma-yu yurib, o'rganishlar davomida ahvolimizdan xabar topdi. Ishonsangiz, shundan buyon hamma masalada yonimizda turibshirdi. Butun mahalla, ijtimoiy xodim, sog'liqni saqlash xodimlari doim yonimizda.

Qizim va nabiramni davolashda juda katta yordam berishdi. Toshkentdagi shifokorlar tumanimiz bilan bog'langan holda ishladi. Qizimni vaqtida shifoxonalarga olib borishimizga ham mahalla sabab. Qarindosh-urug'lar doim yonimizda turadiku, ammo mahalla ko'magi boshqacha ekan. Shifoxonada yonimda onam, ukalarim turibdi, lekin mahalladan ko'ng'iroq qilib, "Opa, sizga yana biror yordam kerak emasmiz?" deyishganida, shifokorlar bilan hokim yoki mahalla raisi gaplashganida, katta yordamni his qildim.

Moddiy ahvolimizni yaxshilashimizda ham ijtimoiy xodim doim yonimizda bo'ladi. Turmush o'rtog'imga imtiyozli kredit asosida motoroller berilgan, shuning orqasidan daromad topaypti. O'zim oldindan tikuvchilik qilardim, qizim va nabiramning kasalligi sabab sexda ishlolmadim. Monomarkazda o'qib, o'g'il-qizlarga dars berishimni tavsiya qilishdi. Hozir tumanidagi "Barkamol avlod" bolalar markazida o'g'il-qizlarni hunarmandlik va qo'l mehnatiga o'rgatayapman. Mahallaning ijtimoiy xodimi yaqinda menga boshqa ish taklif qildi. Mahalla tomonidan 30 sofix yer ajratilyapti. U yerda yiliga ikki marta hosil olishni rejalashtiryapmiz. Ochig'i, qancha ko'p harakat qilganimiz sari mahalla bizga shuncha yordam beriypti.

Umuman, oilamiz o'ta og'ir kunlarni boshdan o'tkazdi va mahalla yordamida qiyinchiliklardan chiqib kelyapmiz. Moliyaviy ahvolimizni deyarli o'nglab olib, hozir hammaning ishi bor. O'g'lim mebel yo'nalishida ishlaydi. Nogiron qizim ham tibbiyot yo'nalishida o'qigan, hozir malaka oshirish kursida tahsil olyapti, ishga joylashmoqchi. Agar mahalla yordam bermaganida, bilmadim, bu muammolardan qanday chiqardik. Ba'zilar "Shu yoshingizda arzimagan oylikka ishlab sizga nima zarur", deydi. Lekin bu minnatdorlik hissi. Bor kuch-g'ayratim bilan bizga ko'rsatilgan g'amxo'rlikka javob berishimiz kerak. O'quvchilarimga ham nafaqat hunar, balki pedagog sifatida vatanga muhabbat hissini uyg'otayotganimdan g'ururlanaman.

Har gal ana shunday oilalarni ko'rganimda, shukronalik hissi bilan qaytishim haqida ko'p aytaman. To'g'ri, muammo, qiyinchiliklar hammamizda ham bor. Har birimiz qayerdadir qoqilamiz, yiqilamiz. Ammo sabr bilan qayta tura olish va yo'lda davom etish shukronalikning eng go'zal ko'rinishi bo'lsa kerak.

Yiqilganida allaqachon davlatimiz qo'l uzatgani, o'z himoyasiga olgani esa kelajakka ishonchimizni yanada oshiradi.

aylanadi. Joriy yilning 23-yanvar kuni davlatimiz rahbari raisligida kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida shular haqida so'z bordi. Vazifalar aniq, ularni amalga oshirish choralari ham belgilab berilgan.

Bir oilani kambag'allikdan chiqarish ko'pchilik o'ylagani kabi oson ish emas. Ayniqsa, unda nogironligi bo'lgan shaxslar istiqomat qilsa. Bu masalani yanada jiddiyashtiradi. Boisi, imkoniyati cheklangan, bundan ruhiy tushkunlikka cheklangan insonga, avvalo, psixologik ko'mak, alohida e'tibor zarur. So'ng uning qiziqishlarini aniqlashtirib, shunga ko'ra biror ishga yo'naltirish mumkin. Bandligini ta'minlash ham ixtiyoriy masala, ba'zilar imkoniyati sabab ishlashni istamasligi tabiiy. Shunda ham o'zini yolg'iz, keraksiz his qilmasligi uchun imkon qadar biror mashg'ulotga yo'naltirish choralari ko'riladi. Oilasining boshqa a'zolari ham shu tarzda biror ishga jalb etiladi.

Ya'ni hozir yurimizda o'ta og'ir ahvolga tushib qolgan, yakka-yolg'iz keksalar, nogironligi bor oilalar bilan shunday tizimli ishlanyapti. Bunga 2024-yildan boshlab har bir mahallada joriy etilgan ijtimoiy xodimlar mas'ul etib belgilangan. Ular o'zlariga birkiritilgan xonadonlarda doimiy monitoring o'tkazib, har bir oila bilan muntazam ishlamoqda. "Mahalla yetiligi"ni ham hisobga olsak, birgina mahallaning o'zida fuqarolar bilan tizimli ishlash, muammolarini hal etish, o'qishga, ishga, tadbirkorlikka yo'naltirish uchun qancha xodim mehnat qilayotganini tasavvur qilavering.

Ammo ushbu islohot orqali raqamlarni hisoblash emas, balki aholining chin ma'nodagi ijtimoiy himoyasini ta'minlash, fuqarolarning kam ta'minlangan, yordamga muhtoj qatlamini ijtimoiy qo'llab-quvvatlab, farovonligini oshirish maqsad qilingan. Ko'rinyotgan natija, o'zgarishlar esa xalqparvarlik siyosatining yorqin namunasidir. Mamlakatimizda ijtimoiy himoya masalasi bugun birinchi galdagi vazifalar qatorida ko'rilmogda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlangan "O'zbekiston — ijtimoiy davlat" tamoyili amaliy mazmun kasb etib, xalqchil islohotga aylandi.

Raqamlar emas, natija gapirsin

Odatdagidek fotograf hamkasbim bilan erta tongdan yo'lga olandik. Bu galgi manzilimiz Yuqori Chirchiq tumani. Chirchiq daryosi va Sirdaryo o'rtasida joylashgan bu tuman Toshkent viloyatining eng chekka hududlaridan biri. Yaqin yillargacha aholisi faqat dehqonchilik qilib, paxta-g'alla terimidan daromad ko'rib kelgan. 2018-yilda tumanida ilk paxta-to'qimachilik klasteri ishga tushishi ortidan 2 mingdan ortiq kishining bandligi ta'minlandi. Keyinroq hududda birin-ketin paxta-g'alla, sholichilik, bog'dorchilik va baliqchilik klasterlari paydo bo'ldi. Tumanga sanoat kirib kelib, ishlab chiqarish rivojlandi. Endi odamlar korxonalarda mehnat qilib, daromad topaypti.

Bunday korxonalar ko'pligi "mahalla yetiligi" uchun ham ayni muddao. Boisi, ular oilalarning ijtimoiy ahvolini o'rganish asnosida ishsiz aholi bandligini ta'minlashda shunday korxonalar bilan hamkorlik qiladi. Odamlar uchun o'lasiga ketmay, o'z hududida ishlab, oilasiga daromad olib kirish ancha qulay. Asosiysi, tadbirkorlar imkoniyati cheklangan, nogironligi bor fuqarolarni ham faol ishga qabul qilmoqda. Buning uchun ularga qo'shimcha imtiyozlar berilyapti.

Umuman, bugun juda ko'p joylarda imkoniyati cheklangan insonlar mehnat qilayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Bu ularga jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida barcha sharoitlar yaratib berilayotganidan dalolat. Ya'ni ular o'z-o'zidan ishga joylashib qolmayapti. Mahalladagi ijtimoiy xodim ular bilan tizimli ishlab, avval o'qish, keyin ishlash uchun yo'naltiryapti. Sog'lig'ini tiklashi, tushkunlikdan chiqib, jamiyatga

bo'lsa, ko'maklashib kelyapti. Uning tavsiyasi bilan tumanidagi monomarkazda bepul o'qib, hunarimni yanada kengroq o'rgandim. Ko'proq turdagi mahsulotlar yasab, onlayn sotuvni yo'lga qo'ydim. 2024-yili uyimizga hokimning o'zi kelib, qanday yordam kerakligini so'raganida, sotuvni kengaytirishga ehtiyojim borligini aytgandim, eshigimiz oldiga ko'chma do'kon olib kelib berishdi. Mutlaqo bepul foydalanyapman. Sotuv ham, daromad ham yomon emas. Keyinroq "Barkamol avlod" bolalar markaziga ishga taklif qilishdi. Imkoniyatim cheklanganiga qaramay, ehtiyojlarim uchun o'zim pul topayotganimdan quvonaman. Asosiysi, shu ishim sabab katta tushkunlikdan chiqdim, hayotga bo'lgan umidim oshdi. Shu yo'nalishda ishimni kengaytirib, tadbirkorlikni yo'lga qo'yishni maqsad qilganman.

Mahalladagi ijtimoiy xodim zimmasiga yuklatilgan vazifa ham shu — og'ir ahvolga tushib qolgan, imkoniyati cheklangan, ehtiyojmand oilalarning har bir muammosini o'rganib, ular bilan tizimli ishlash, kompleks xizmatlar ko'rsatishdan iborat. "Shodlik" MFY ijtimoiy xodimi Nargiza Ahmedova o'nlab ana shunday fuqarolar bilan ishlab kelmoqda. Ularga tibbiy yordam xizmatlaridan tortib, qiziqishiga ko'ra sport mashg'ulotlari, o'qishga va ishga joylash harakatlarini olib boradi.



Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

qo'shilishi uchun zarur ko'maklar berilyapti. Bizga kun davomida Ijtimoiy himoya milliy agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi boshlig'i Miraziz Mirsultonov hamrohlik qildi. Yo'l-yo'lakay ma'lumotlar bilan tanishtirdi. Aytishicha, 2025-yil yanvar-noyabr oyi davomida Toshkent viloyatida 116 ming oila kambag'allik so'rovnomasidan o'tkazilgan. So'rovnoma natijalariga ko'ra, 43 ming 756 oila "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritilgan. Mutasaddi ularga berilayotgan yordamlar haqida ham gapirdi, ammo bizga ko'proq



amaliy natija muhim. Hatto bular haqida eshitib, "Imkoniyati cheklangan bir necha kishiga odatdagidek bir-ikki marta moddiy yordam berilib, ko'ngli ko'tarilgan bo'lsa kerak", degan xayolga bordim. Ammo ilk qahramonimni ko'rib, subhatlashishim bilan oq fikrim o'zgardi.

Tumandagi Shodlik mahallasida yashovchi Manzura Ergasheva bilan "Barkamol avlod" bolalar markazida ko'rishdik. Bir yildan buyon shu yerda to'g'arak rahbari sifatida bolalarga hunar o'rgatarkan. Imkoniyati cheklangani sabab yurishga bir oz qiyalsa-da, markaz binosiga o'ziga bo'lgan ishonch, qat'iyat bilan kirib keldi. Gapirish ohangi ancha dadil. Bir paytlar ich-etini yegan tushkunlikdan asar yo'q, balki buni sezdirmas. O'zining aytishicha, ishga joylashganidan keyin tushkunlikdan chiqib, umid bilan yashay boshlagan. Hozir sevimli ishi muammolarini unutishga, yangi maqsadlar bilan yashashga ko'mak beryapti. Ham harakat-tayanch, ham ko'rish qobiliyatidagi nuqsoniga qaramay, ko'zlarida yonib turgan shijoati odamni hayratga soladi.

Mendagi pay-to'qimalar kasalligi 18 yoshimda noto'g'ri davolash oqibatida orttirilgan, — deydi Manzura opa. — Mana, 20 yildirki, shu kasallik bilan yashayapman. Rahmatli otam sog'ayib ketishimga umid qilib, nogironlik ro'yxatiga kiritmagan, guruh ham belgilanmagan. Uyimizda ijtimoiy xodim kelib, ahvolini o'rgangach, birinchi navbatda, nogironlik guruhi belgilandi. Elektron aravacha olib berishdi. Onam, akam va uning oilasi bilan bir yuday yashaymiz.

Mahallamizda Nargiza Ahmedova ijtimoiy xodim sifatida ish boshlagach, sharoitimizni o'rganib, bugungacha nima yordam kerak



Hamma narsa o'zimizga bog'liq. Lekin atrofda harakatimizga yarasha yoki bizni harakatga undaydigan qo'llov ham bo'lishi kerak. Avvallari imkoniyati cheklangan, nogironligi bor shaxslar deyarli e'tiborsiz edi. Go'yoki nogironlik ularning bir umr uyda kimningdir parvarishiga muhtoj holda yashashi uchun hukm edi. Bugun esa bizga ko'rsatilayotgan e'tibor, munosabatlardan o'zini sog'lom insondek his qilaman. Ana shu ishonch bizga ruhiy quvvat beradi.

Baraka — mehnatda


Bir oilani bilardim. Turmush o'rtog'idan beva qolgan ayol to'rt qiz, bir o'g'lini yolg'iz boshi bilan voyaga yetkazdi. Bir qizi sog'lom, qolganlari gapirish va eshitishda nuqson bilan tug'ilgan. Qarindoshlar oila qurgani bunga sabab. Farzandlari mendan bir necha yosh ulug'roq bo'lgani bois, ularning ulg'ayganini ko'rib katta bo'ldim. Ayolning arzimagan oylik maoshi va bolalarga beriladigan juda kam summadagi nogironlik nafaqasiga kun ko'rishdi.

Ayol nogironlik nafaqasini rasmiylashtirish uchun ham doim qayergadir yugurar, bir muddat farzandlarini shifoxonaga yuqtqizib, har gal imkoniyati cheklanganini tasdiqlatib olishiga to'g'ri kelardi. Shifoxonada davolanish bepul, ammo o'ziga yarasha xarajatlari bo'lardi. Farzandlari katta bo'lib ham biror joyda o'qiyolmadi, ish ham topolmadi. Qizlari-ku, turmushga chiqib ketdi. Ammo o'g'li ishlay olmadi. Ko'z nuri nihoyatda xira ekanini ishlashiga pand berardi. Xullas, oila umr bo'yi o'z muammolari bilan andarmon bo'lib yashadi. Ayol olandan o'tgunicha ham farzandlarining ro'shmolikka chiqqanini ko'rmas...

Manzura opa bilan subhatlashib, negadir shu yodimga tushdi. Afsuski, jamiyatimizda ayrim saxovatpesha insonlarni aytmaganda, ko'pchilgimiz nogironligi bor shaxslar turmushiga befarqmiz. Boylar ham bir necha martadan keyin yordam qo'lini uzadi. Biz esa o'zimizdan o'tmaymiz. Eng beminmat ko'makchi esa baribir davlatimiz ekan.

Shularni gapira turib, Umid aka hayotidan nolislasigini aytdi. Shukr qilish yaxshi, ammo bu amal-taqal yashashga rozilik evaziga bo'lmasligi kerak. Birdaniga "Chunki siz oldin ham nolimagansiz, tabiatigiz shunaqa. Bu yaxshi. Lekin insonmiz, yaxshi yashagimiz keladi. Siz o'z hayotingizda berilayotgan yordamlar, e'tiborni qanchalik sezyapsiz





Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘zbekiston hududida yashagan xalqlar qadim zamonlardayoq yoshlarning ruhiy, aqliy, axloqiy va jismoniy madaniyatiga alohida e’tibor bergan. Ular farzandlariga bolalik chog‘larida kurash, o‘q-yoy otish, chavandozlik singari jangovar o‘yinlarni muntazam o‘rgatib kelgan. Yunon tarixchisi Gerodot xorazmiylar bilan yonma-yon yashagan saklar qabilasidagi mohir merganlar xususida bunday deb yozadi: “Saklar dunyodagi barcha merganlar orasida o‘qni zo‘yе kеtkazmaydigan juda usta merganlar sifatida shuhrat qozongan edi”.

Saklar va xorazmliklarning ayollari ham harbiy yurishlar va janglarda qatnashar, mardlik va matonatda erkak jangchilardan qolishmas edi. Faylasuf Kliment Aleksandriyskiyning saklar qabilasi ayollari haqidagi ushbu ta’rifi esa bugungi o‘zbek xotin-qizlarida shakllangan madaniy kodlarning o‘qildiz bilan aloqa o‘rnatganini yana bir karra isbotlaydi: “Sak ayollari ayyorlik bilan qochayotib, ot ustida xuddi erkaklarday orqaga burilib o‘q uzar edi”.

Xalqimiz butun hayoti davomida ezigulikka intilgan. Bu intilishlar “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali ham avloddan avlodga o‘tib kelgan. Ular shu sababli odamlar ruhiyatining yashirin



jihatlarini o‘rgana boshlagan: sog‘liq va kasallik to‘g‘risidagi umumiy bog‘liqlik, tana bilan ruhning aloqadorligini tadqiq etgan.

Kurashda zaminning quvvatini his qilish holati, chavandozlikda esa ot bilan bir butun bo‘lish qobiliyati futbolga tez moslashish imkonini

ALPLIK QUVVATI-YU MUZAFFAR TIYNAT KATTA O‘ZANGA QO‘SHILAYOTGAN FUTBOLIMIZNING TURKIY QIYOFASI

berdi. Tezlik, to‘qnashuvlar, g‘alabaga intilish va tomosha uchun o‘ynash ruhi biz uchun yot emas edi. Xalq hali o‘z tabiiy ijtimoiy oqimida yashar, odamlar iste’dodini namoyon etishdan tortinmasdi.

Keyingi davrda esa ildizdan uzilish yuz berdi. Mustamlakachilik siyosati ijtimoiy ong oqimini o‘zgartirib yubordi. Faollik qora mehnatga, tashabbus ehtiyoqkorlikka, ochiq raqobat ko‘rquvga almashdi. Suv keladigan o‘zanimiz yopildi. Katta daraxtning aybi — soyasining kattaligida deya qadim tariximiz soyasida qolib ketayotgan edik.

So‘nggi yillarda esa temir qopqalar ochildi. Yoshlarimiz sportdagi imijini anglash, o‘z o‘yin falsafasini topish bosqichiga kirdi.

O‘zbekiston — futbolni rivojlantirishda strategik hamkor

Bugungi o‘zbek futboli falsafasi natijadan qo‘rqmaydigan, toza mehnat va turkiy quvvatga tayangan yoshlar hisobiga o‘z ma’no qatlamlarini mustahkamlab bormoqda. Ayni damda xorij klublarida o‘ynayotgan o‘zbek futbolchilarining umumiy xarakteri deyarli bir nuqtada tutashadi: jismonan baquvvat, sabrli, irodali, ortiqcha shikoyat qilmaydi, o‘rishni istaydi, gaplaridan ko‘ra sukuti ko‘p narsani hal qiladi.

Abduqodir Husanov bu jarayonning eng yorqin misoli. Ingliz muxlisari yoqtirishining sababi uning faqat yaxshi o‘yinchini ekanida emas, balki maydondagi xatti-harakatlarining o‘ziga xosligida. Unda keraksiz fintlar yo‘q, hissiyotga kamdan-kam beriladi, har bir harakati mukammallikka yaqin: aniq, sodda va o‘z vaqtida. Angliya futbol madaniyatida bunday futbolchilar qadrlanadi. Boisi, u yerda “halol mehnat” tushunchasi juda muhim. Har besh daqiqada raqib jamoasi muxlislariga qarata ko‘kragiga urib yuradigan emas, balki oxirgi daqiqaga qadar yuguradigan futbolchi hamma joyda hurmat qilinadi.

Ilgari milliy o‘zlikni anglash jarayoni tashqi qarshilikka javob sifatida shakllangan edi. “Bizni baribir tan olishmaydi” degan hafsalasizlik ildizlarni quritayotgan millatchilik xarakterini oziqlantirardi. Bugun esa milliy o‘zlik ichki intizomga tayanmoqda. Bu — yetuklik belgisi.

Bunday metin xarakterning paydo bo‘lishida, shubhasiz, mamlakatimizda so‘nggi to‘qqiz yilda qilingan salmoqli ishlarning ta’siri katta. Bu kichik davrda mahalliy chempionatlar tizimi isloh qilinib, bolalar va o‘smirlar akademiyalari tashkil etildi. 2017-yilda yurtimizda FIFA hamda Osiyo futbol konfederatsiyasi talablariga javob beradigan maydonlar soni atigi 3 ta edi. Bugun ularning soni o‘ndan oshdi. Ushbu soha rivoji uchun jahonning nufuzli futbol klublaridan trenerlar, sport tibbiyoti va farmakologiyasi bo‘yicha malakali mutaxassislar, sport psixologlari jalb

qilindi. Bu sa’y-harakatlar natija bera boshladi.

Futbol bo‘yicha olimpiya terma jamoamiz o‘tgan yili Parijdagi olimpiadada birinchi marta ishtirok etdi. O‘zbekiston o‘smirlar terma jamoasi (U 17) aql bovar qilmas yo‘lni bosib o‘tib, o‘z tarixida uchinchi marta Osiyo chempionati finaliga chiqdi va g‘alaba qozondi. O‘n uch yildan so‘ng tarixiy natijani takrorlab, 2012-yildan buyon ilk marta sovrinni boshi uzra baland ko‘tardi.

So‘nggi to‘qqiz yillikdagi futbolimiz, u yaratayotgan kayfiyat, chiqarilgan qarorlar,



umuman, futbolga munosabat bo‘yicha o‘lchansa, doim asosiy mezon milliy jamoaning jahon chempionati final bosqichiga chiqishi bo‘lgan. Boshqacha aytganda, mamlakat futboli mazmuni va mohiyati aynan mana shu maqsad atrofida qurilgan, shu bo‘yicha baholab kelingan. Demak, shu nuqtayi nazardan qaraganda, 2025-yilda eng muhim voqea ro‘y berdi — jahon chempionati yo‘llanmasi ko‘lga kiritildi. O‘tgan yili qo‘yilgan poydevor bahordagi qiyin pallalarga ham dosh berdi. Avvaliga Srechko Katanes, keyin esa kerakli paytda eng muhim ishini bajargan Temur Kapadze hech qachon o‘chirilmaydigan zarvarqalarga o‘z ismini yozib qo‘ydi.

Bir yil oldin shu paytlarda Abduqodir Husanovga “Manchester Siti” qiziqayotgani haqidagi xabarlar chiqqanida ko‘pchilik bu voqea ro‘y berishiga ishonmagandi. Ammo bu sodir bo‘ldi. 2025-yil avvalida butun dunyo o‘zbekistonlik himoyachi haqida bilib oldi, ijtimoiy tarmoqlardan O‘zbekiston milliy jamoasi, Husanovning o‘yinlari haqida ma’lumotlar qidirila boshlandi. Husanov fevraldayoq “Chelsi”ga qarshi debyut qildi, keyin qator o‘yinlarda boshlang‘ich tarkibda tushib, jamoa uchun qiyin davrda o‘zini ko‘rsatdi.

2025-yilda Abduqodir Husanov jami 19 o‘yinda “Manchester Siti” libosida ko‘rinish berdi. Angliya kubogida “Leyton Oriyent” darvozasi ga gol ham urdi. Kilian Mbpae, Vinisius, Muhammad Saloh, Son Hyong Min, Aleksandr Isak, Viktor Yokeresh kabi nomdor hujumchilarga qarshi harakat qildi. Eng muhimi, aynan 2025-yilda Husanov nomi endi futbol olami uchun begona emas, uning ustunliklari, kamchiliklari ma’lum va doim himoyani kuchaytirish maqsadida transfer bozoriga chiqqan top jamoalar uchun variant sifatida tilga olinaveradi.

Futbol bir qarashda dunyoning barcha hududida bir xil o‘ynaladigandek ko‘rinadi. Aslida, o‘yin paytida maydonda har bir millat yoki davlatning o‘ziga xos emik xususiyatlari hamda milliy mentalitetning tarkibiy elementlari aks etib turadi. Bugun o‘yinchilarimizning qaror qabul qilish tezligi, individual mas’uliyatni bo‘lishishga tayyorligi va murakkab vaziyatlarda tashabbusdan qochmasligi milliy identitet kodlarining futbol tilida qayta o‘qila boshlaganini anglatadi.

Ushbu jarayonning ta’siri xalqaro darajada sezilayotgani FIFA prezidenti Janni Infantinning yaqinda o‘zbekistonlik sportchilarning so‘nggi yillardagi tarixiy yutuqlari haqida bildirgan fikrlari orqali aks etmoqda.

Men O‘zbekiston hukumati va futbol assotsiatsiyasini o‘z maqsadlarini amalga oshirishda qo‘llab-quvvatlay olganimdan faxrlanaman, — dedi FIFA rahbari videomurojaatnomasida. — O‘rtamizdagi hamkorlik tobora mustahkamlanib, rivojlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Do’slik” ordeni bilan taqdirlanishim men uchun katta sharaf. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil sentabrda BMT Bosh Assambleyasida so‘zlagan nutqida O‘zbekiston xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi mulohotni mustahkamlashga intilayotganini ta’kidladi. Bu FIFA to‘liq qo‘llab-quvvatlaydigan falsafa bo‘lib, O‘zbekiston biz uchun futbolni rivojlantirishda ishonchli va strategik hamkor ekanini tasdiqlaydi.

Jahon kubogi Toshkentda

Jahon futbolining eng oliy timsoli bo‘lgan oltin kubokning Toshkentga muntazam olib kelinishi o‘zbek futbolining endi faqat kuzatuvchi emas, balki global jarayonning bir qismi sifatida qabul qilina boshlaganidan dalolat.

Joriy yil 27-yanvar kuni maxsus charter reys Toshkent xalqaro aeroportiga kelib qo‘ndi. Havo kemasida futbol bo‘yicha jahon chempionatining asl oltidan yasalgan kubogi hamda italiyalik futbol afsonasi Marko Materassi yetib keldi.

Mazkur tashrif FIFA jahon chempionati kubogining rasmiy sayohati doirasida amalga oshirildi. 2026-yil 3-yanvar kuni Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahridan start olgan tur jami 75 manzilni qamrab oladi. Toshkentga kelishdan avval kubok Vena, Seul, Tokio, Nyachang va Kuala-Lumpur kabi o‘nlab shaharda bo‘lgan. Kubokning xalqaro sayohati 2026-yil 11-iyunidan 19-iyuliga qadar bo‘lib o‘tadigan jahon chempionati boshlanishigacha davom etadi.

Jahon chempionati kubogining yurtimizga olib kelinishi juda katta voqea. Chunki xalqimiz 34 yil kutgan orzu amalga oshdi va O‘zbekiston milliy terma jamoasi mundialga yo‘llanmani ko‘lga kiritdi, — deydi O‘FA birinchi vitse-prezidenti Ravshan Ermatov. — Prezidentimizning qo‘llab-quvvatlovi bilan mamlakatimizda sport, jumladan, futbol jadal rivojlanmoqda. Akademiyalar, zamonaviy sport inshootlari barpo etilmog‘da. Bu jarayonni xalqaro ekspertlar ham e’tirof etmoqda. Shuningdek, jahon futboli yulduzlarning yurtimizga kelib, yosh futbolchilar bilan birga

maydonga tushayotgani ham ajoyib holat. O‘ylaymanki, kelajakda O‘zbekiston milliy terma jamoasi jahon chempionatida g‘olib bo‘lib, kuboklarni yurtimizga olib keladigan kunlarni ham ko‘ramiz.

Poytaxtimizdagi “O‘zekspomarkaz” milliy ko‘rgazmalar majmuasida futbol bo‘yicha jahon chempionati kubogining tantanali taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Unda Sport vazirligi, Milliy olimpiya qo‘mitasi, O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi rahbariyati, futbol jamoatchiligi va ko‘p sonli muxlislar ishtirok etdi.

Jahon chempionati kubogi an’anaga muvofiq har mundial yili jahon turi doirasida ko‘plab mamlakatlarga olib kelinadi. Joriy yildagi taqdimot esa milliy terma jamoamizning jahon chempionatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritgani bilan har qachongidan-da katta qiziqish va bayramona kayfiyatda o‘tdi. Ayniqsa, kelgan mehmonlarning o‘zbek futboli haqidagi iliq gaplarini eshitish yoqimli bo‘ldi. Marko Materassi ham mundialda do’sti Kannavaro murabbiylik qilayotgan O‘zbekiston terma jamoasiga muxlislik qilishini aytdi.

Milliy madaniy kodning o‘ziga xosligi — ulkan yutuq

Tarix charxpalagi aylanaveradi, taqdir halqalari bir-biriga uyqashib o‘taveradi. Futbol kabi omмага ta’sir etuvchi sport turlari esa bu oqimni xalq yodida saqlaydi. Insonning ruhi va tanasi baravar kamolga yetgani kabi xalq ham ilm hamda sportdagi muzaffariyatlar yo‘lidan borsa, orzu-umidlarining ro‘yobini ko‘raveradi.

“O‘zingniki o‘zgacha bo‘ladi” degan hikmat rost ekan. Futbol o‘yini milliy ko‘rinishda bo‘lishi barobarida mohiyatan umuminsoniydir. Jahon chempionati deyilgan mezonada sanoqdan qolib ketish — borsan-u yo‘qsan deganday gap edi. Unga-ku yo‘llanma olindi, endi mezon jahoniy darajaga chiqishga ko‘chdi. Aylanayotgan charx g‘ildiragining ko‘hna tovushida navbatimiz kelayotganiga ishoralar bor. Demak, uyg‘onish faslini xotirjam o‘tkazib yuborib bo‘lmaydi.

Futbol bo‘yicha jahon chempionatidagi bo‘lg‘usi ishtirokimiz allaqachon bir millatning global maydondagi ramziy chiqishiga aylanib ulgurdi. Endi biz uchun futbol o‘yindan ko‘ra kengroq ma’no kasb etayotir: u tobora jamiyat o‘zini qanday ko‘rish va boshqalarga qanday ko‘rinish berishini belgilovchi ijtimoiy ko‘zguga aylanib bormoqda. Shu bois, futboldagi imij masalasi bugun texnik-taktik masalalardan kam ahamiyat kasb etmaydi.

Xorijlik tomoshabin ham, taniqli ekspert ham bir jamoani eslab qolishda tablodagi hisobdan ko‘ra umumiy taassurotga tayanadi. Shu ma’noda, “yodda qolish” tushunchasiga sport sotsiologiyasida ma’naviy kapital sifatida qaraladi. Quvonarli jihati, bu kapital yillar davomida shakllanadi va keyingi avlodlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Futbolchi qayerda qay tarzda gapiradi, mag‘lubiyatni qay holatda qabul qiladi, g‘alaba onida o‘zini qanday tutadi — bularning barchasi jamoaviy xulq-atvor modeliga aylanadi. Jamiyat esa bu modelni o‘zining ideal qiyofasi sifatida qabul qiladi.

Shu bois, yurtimizda so‘nggi yillarda futbolchilar bilan ishlashda faqat jismoniy va taktik tayyorgarlik emas, balki kommunikativ madaniyat va axloqqa ham e’tibor kuchaymoqda. Bu sportimizning institutsionallashuv darajasi o‘sganidan darak.

O‘zbekistonda futbolning rivojlanishi mamlakat ichidagi kengroq ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni aks ettiruvchi strategik islohotlardan dalolat beradi. Davlatimiz 2016-yildan hozirga qadar futbol sektorini institutsionallashtirish, professionalashtirish va globalashtirishga katta sarmoya kiritdi. Mamlakatimizning sport siyosati hamda FIFA kabi tashkilotlarning xalqaro hamkorligi natijasida qo‘llab-quvvatlangan zamonaviy stadionlar, futbol akademiyalari va yoshlarni rivojlantirish bo‘yicha kuchli dasturlar barqaror futbol ekotizimiga hissa qo‘shdi. O‘zbekistonlik futbolchilarning xorijiy ligalarda paydo bo‘lishi iste’dodlar kamol topayotganini ko‘rsatibgina qolmay, mamlakatning jahon sport maydonlarida obro‘-e’tiborini oshirish vositasi sifatida ham xizmat qilmoqda. Shu ruhd davom etarkanmiz, kelgusi yillarda FIFA jahon chempionati kabi yirik turnirlarga yo‘llanma olish jarayoni bardavom bo‘ladi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chiq etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-146. 32015 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi. Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva Musahhih: Akbar Qarshiyev Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy